

“Internet” tariflar tiziminining shartlari

- “Internet” tariflar tizimi yangi ulanishlar hamda Postpaid tizimi ichidagi o‘tishlar uchun ochiq.
- Barcha tariflardan “Internet 1”, “Internet 2”, “Internet 3” va “Internet 4” tarif rejalariga o‘tish narxi – 0 UZS.
- “Internet” tizimi tarif rejalaridan Postpaid tizimidagi mavjud tarif rejalariga o‘tish narxi – 0 UZS.
- “Internet” tariflar tizimida ovoqli aloqa hamda SMS (kiruvchi va chiquvchi) xizmatlari amal qiladi. 1 daqiqa va 1 SMS narxi – 100 so‘m.
- Qo‘shimcha internet-to‘plamlarni faollashtirish mumkin.
- Taqdim etiluvchi limitlarni “Restart” xizmatidan foydalanish yo‘li bilan qayta faollashtirish mumkin.
- “Internet” tariflar tizimida abonent to‘lovi har taqvimiy oyning 1-sanasida yechiladi.
- Tarif doirasida taqdim etiluvchi internet-trafik limiti taqvimiy oyning oxirigacha amal qiladi va yangi davrda undan foydalanib bo‘lmaydi.
- Mijoz raqami Faol holatda bo‘lsa, ammo hisobidagi pul mablag‘lari oylik abonent to‘lovidan kam bo‘lsa, u holda tarif rejasidagi abonent to‘lovi to‘liq hajmda yechiladi va limitlar to‘liq hajmda belgilanadi. Bunda, limitlardan raqam Faol holatga o‘tganidan so‘ng foydalanish mumkin bo‘ladi.
- Mijoz raqami nafaol / manfiy balansli holatda bo‘lsa, u holda abonent to‘lovi yechilmaydi va tarif bo‘yicha limitlar belgilanmaydi. Raqam Faol holatga o‘tishi bilan darhol tarif rejasi bo‘yicha abonent to‘lovi yechiladi. Abonent to‘lovining yechilishi hamda limitlarning belgilanishi taqvimiy oyning oxirigacha qolgan kunlar soniga mos holda amalga oshiriladi.
- Agar Mijoz “Vaqtinchalik bloklash” xizmatini faollashtirsa (masalan, SIM-kartani yo‘qotib qo‘yganida), abonent to‘lovi yechilmaydi. Raqam bloklangan oyning o‘zida Faol holatga o‘tilsa, abonent to‘lovi yechilmaydi. Raqam keyingi oylarda blokdan chiqarilsa, abonent to‘lovi joriy oyning oxirigacha qolgan kunlar uchunгина yechiladi va limitlar shunga mos miqdorda joriy oyning oxirigacha belgilanadi.
- “Raqamni saqlab qolish” xizmati faollashtirilganida tarif bo‘yicha abonent to‘lovi yechilmaydi. “Raqamni saqlab qolish” xizmati o‘chirilganidan so‘ng abonent to‘lovi faqat joriy oyning oxirigacha qolgan kunlar uchun yechib olinadi va limitlar to‘liq hajmda belgilanadi.
- Postpaid tizimidagi mavjud tarif rejalaridan “Internet” tizimi tarif rejalariga o‘tilsa, oldingi tarif rejasiga ko‘ra avval belgilangan limitlar bekor qilinmaydi.
- “Internet” tariflar tizimidan Postpaid tizimidagi boshqa tarif rejalariga o‘tilsa, oldingi tarif rejasiga ko‘ra avval belgilangan limitlar bekor qilinmaydi.

Tarif rejasi shartlariga ko‘ra limitdan tashqari yo‘nalishlar qiymati

Yo‘nalishlar bo‘yicha narxlash:	
Tarmoq ichidagi va tarmoqdan tashqari qo‘ng‘iroqlar uchun chiquvchi daqiqa narxi	100 so‘m
O‘zbekiston bo‘yicha chiquvchi SMS narxi	100 so‘m
Xalqaro SMSlar	1 500 so‘m

Limitlar qoldiqlarini tekshirish	
Balansni tekshirish	*100#
Internet-trafikni tekshirish	*103#

“Restart” xizmati shartlari

- Mazkur tariflar tizimida “Restart” xizmati amal qiladi: *222#.

- “Corporate VIP”, “Individual” va “Business Man” shartnoma turiga ega abonentlar “Restart” xizmatini *222# USSD-so‘rovi yordamida faollashtira oladilar. Boshqa shartnoma turiga ega bo‘lgan yuridik shaxslar “Restart” xizmatini Kompaniyaga yozma murojaat taqdim etish yo‘li bilan faollashtirishlari mumkin.
- Xizmatga ulanish paytida abonent hisobida joriy oyning oxirigacha qolgan kunlar soniga mos holdagi abonent to‘loviga yetarli miqdorda mablag‘ bo‘lishi kerak.
- “Restart” xizmatini samarali faollashtirilganda, tarif rejasi bo‘yicha abonent to‘lovi faqat joriy oyning oxirigacha qolgan kunlar uchun yechib olinadi va qoldiq kunlar soniga mos miqdordagi limitlar belgilanadi.
- “Restart” xizmatidan kuniga bir marta foydalanish mumkin.
- “Internet 1”, “Internet 2”, “Internet 3” hamda “Internet 4” tarif rejalariga ulanish va tarifni almashtirish kunida “Restart” xizmatini faollashtirib bo‘lmaydi.

Eslatma

- Tarif rejaları doirasida taqdim etilgan limitlar roumingdagi abonentlar uchun amal qilmaydi.
- Jismoniy shaxslar uchun “Internet” tariflar tizimi ichida tarif rejasini almashtirish va boshqa tarif rejalaridan o‘tish *929# USSD-so‘rovi orqali amalga oshiriladi.
- Yuridik shaxslar uchun tarif rejasini almashtirish Kompaniyaga yozma murojaat taqdim etish yo‘li bilan amalga oshiriladi.
- “Internet” tariflar tizimida barcha reklama kontent xizmatlari bloklanadi, ya’ni standart holatga ko‘ra “Ko‘ngilochar xizmatlarni taqiqlash” xizmati ulangan.